

**Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi  
Axborot-bibliografiya xizmati**



**<<9 - may Xotira va qadrlash kuni>>  
munosabati bilan  
“Vatanini himoya qilishda jonini fido qilgan xalq”  
nomli kitobxonlarga eslatma.**

**Do`stlik sh 2024**

## <<9 - may Xotira va qadrlash kuni>>

### munosabati bilan

## “Vatanini himoya qilishda jonini fido qilgan xalq” nomli kitobxonlarga eslatma.

**Ikkinchi jahon urushi** (1-sentyabr 1939 — 2-sentyabr 1945) — XX asrda sodir boʻlgan jahon tarixidagi eng yirik urush. Ushbu urush XX asr fojiasi sifatida insoniyat tarixiga kirgan. Gʻarb mamlakatlari (Angliya, Fransiya, AQSh) hukmron doiralarining „kelishtirish“ siyosati Avstriyani (1939-yil mart), Chexoslovakiyani (1939-yil mart) Germaniyaga qoʻshib olinishiga va Myunxen bitimiga (1939-yil sentyabr) yoʻl ochib berdi. Ikkinchi jahon urushining boshlanishida SSSRning ham aybi bor. 1939-yil 23-avgustda SSSR bilan Germaniya oʻrtasida Molotov-Ribbentrop pakti 10 yil muddatga hujum qilmaslik toʻgʻrisida shartnoma imzolandi. Bu shartnomaning maxfiy qoʻshimcha ahdnomasiga muvofiq, Germaniya va SSSR Sharqiy Yevropada oʻzlarining taʼsir doiralarini boʻlib oldilar. Har ikki mamlakat manfaatlari, avvalo, Polsha davlati bilan bogʻliq edi. Sovet tomoni Gʻarbiy Ukraina, Gʻarbiy Belorussiya va Bessarabiya (1921-yilda boy berilgan) hududlarini qaytarib olmoqchi edi. Shuningdek, Germaniya Boltiqboʻyi mamlakatlariga daʼvo qilishdan ham voz kechdi.

Germaniya bilan SSSR shartnomaga muvofiq, Polshaga bir vaqtda qoʻshin kiritishlari kerak edi. SSSR bu majburiyatni bajarmadi. 1939-yil 1-sentyabrda Germaniyaning bir oʻzi Polshaga bostirib kirdi va Ikkinchi jahon urushini boshlab berdi. 3-sentyabrda Angliya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush eʼlon qildi. SSSR 1939-yil 17-sentyabrda Polsha hududiga qoʻshin kiritdi. Koʻp oʻtmay Brestda olmon qoʻmondoni T. Guderian va sovet generali S. M. Krivosheiy qoʻmondonligida Polshaning boʻlib olinishi munosabati bilan qoʻshma sovet-olmon paradi oʻtkazildi.

SSSR Ikkinchi jahon urushi bahonasida oʻz hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlashga kirishdi. 1939-yil noyabr — 1940-yil martda SSSR bilan Finlandiya oʻrtasida harbiy toʻqnashuv boʻldi. Bundan SSSR manfaatdor edi. Oʻzaro urush natijasida SSSR Finlandiyaning bir qator hududlarini (Leningradga chegaradosh yerlar va Viborg) tortib olib, shim.gʻarbiy chegaralarini mustahkamlab oldi. 1940-yilning yozida SSSRning rasmiy talabi bilan Ruminiya Bessarabiya va Shimoliy Bukovinani sovetlarga berishga majbur boʻldi. 1940-yil iyun oyida Estoniya, Latviya va Litva sovet qoʻshinlari tomonidan bosib olinib SSSRga kiritildi.

1940-yil aprel-mayda nemis fashist qoʻshinlari Daniya va Norvegiyani istilo qildi, 1940-yil 14-mayda — Niderlandiya, 28-mayda — Belgiya taslim boʻldi. Shundan soʻng fashist

qo'shinlari Lyuksemburg va Gollandiyani bosib olib, ular hududi orqali Fransiyaga (22-iyunda taslim bo'ldi) bostirib kirdi.


Sovet hukumati fashistlar Germaniyasini Yevropaning navbatdagi poytaxtini bosib olishi munosabati bilan tabriklab bordi. Internatsionalning direktivalarida fashizmga qarshi targ'ibotni to'xtatish haqidagi talablar paydo bo'ldi. 1940-yil 27-sentyabrda Germaniya, Italiya va Yaponiya davlatlari Berlinda „uchlar ittifoqi“ni tuzish haqidagi shartnomaga imzo chekishdi. 1940-yil 28-oktyabrda fashistlar Italiyasi Gretsiyaga bostirib kirdi. 1940-yil 20-24-noyabrda Mojariston, Rumuniya va Slovakiya „uchlar ittifoqi“ga qo'shildi. 1941-yil martda esa Bolgariyaning monarxiyafashistik hukumati ham bu ittifoq safiga ko'shilishga rozilik bildirdi.

1940-yil 18-dekabrda Gitler SSSRga qarshi urush haqidagi 21-sonli direktivasi „Barbarossa“ rejasiga imzo chekdi. Fashistlar Germaniyasi SSSRga qarshi kurash boshlashdan oldin 1941-yil 6-17-aprelda Yugoslaviyani bosib oldi. Shu yilning 13-aprelda SSSR Yaponiya bilan betaraflik haqida kelishib oldi. 1941-yil 20-may — 1-iyunda fashistlar Germaniyasi Krit orollarini egalladi. 18-iyunda esa hujum qilmaslik va hamkorlik haqida Germaniya — Turkiya shartnomasi imzolandi.

1941-yil 22-iyunda fashistlar Germaniyasi SSSRga qo'qqisdan hujum boshladi. Aynan shu vaqtdan boshlab tarix notog'ri yozilib SSSR II jahon urushining faqat 1941-1945 davrini oladi. Mojariston, Rumuniya, Finlandiya, Italiya uning tomonidan turib urushga kirdi. Shu kuni Angliya hukumati SSSRni Germaniyaga qarshi urushda qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. 24-iyunda Franklin Roosevelt AQSH xukumati SSSRga yordam berishga tayyor ekanligini bildirdi. SSSR Germaniyaga qarshi urushning 1-davri (1941-yil iyun — 1941-yil noyabr) da, asosan, mudofaa harakteridagi janglar olib bordi.

Fashistlar Germaniyasi va ittifoqchilarining tajovuzkorona harakatining tobora avj olishi jahon mamlakatlarini tashvishga soldi. 1941-yil yozida fashistlar Germaniyasiga qarshi koalitsiya tuzish yo'lida dastlabki qadam qo'yildi. 1941-yil 12-iyulda SSSR na Buyuk Britaniya hukumatlari fashistlar Germaniyasiga qarshi urushda birgalikda harakat qilish haqida kelishib olishdi. 1941-yil 24-sentyabrda Sh. Is Goll boshchiligida Ozod Fransiya (1942-yil iyuldan Kurashayotgan Fransiya) milliy qo'mitasi tuzilib, fashizmga qarshi kurash boshladi. 1941-yil 5-dekabrda nemisfashist qo'shinlarining Moskva jangidagi mag'lubiyati Gitlerning „yashin tezligidagi urush“ deb atalmish rejasini puchga chiqardi va natijada unga qarshi urushga kirgan mamlakatlar soni ortdi.

1941-yil 7-dekabrda Yaponiya Pyorl Harbarga hujum qilish bilan Buyuk Britaniya va AQShga qarshi urushni boshlab yubordi. 8-dekabrda AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlar Yaponiyaga, 11-dekabrda esa Germaniya va Italiya — AQShga, shu kuni AQSh fashistlar Germaniyasi va Italiyaga qarshi urush e'lon qildi.




1941-yil oxiri — 1942-yil boshida Yaponiya Malayziya, Indoneziya, Filippin, Birmani bosib olib, Avstraliyaga tavdid sola boshladi. Sharqiy frontda esa Olmonfashist qo‘shinlari yozgi hujumlar natijasida Kavkaz bo‘lag‘asiga, Volga bo‘yiga yetib keldi.

1942-yil 1-yanvarda Vashingtonda 26 davlat ishtirokida fashizmga qarshi kurashuvchi davlatlarning harbiy ittifoqi tuzilib, Deklaratsiya qabul qilindi. 1942-yil 26-mayda SSSR va Buyuk Britaniya o‘rtasida fashistlar Germaniyasi va uning Yevropadagi tarafdorlariga qarshi urushda ittifoqchi bo‘lish va urushdan keyin o‘zaro yordam va hamkorlik qilish haqida shartnoma imzolandi. 1942-yil yoziga kelib antigitlerchi davlatlar soni yanada ortdi. 1-iyunda Meksika Germaniya, Italiya va Yaponiyaga, 22-avgustda Braziliya Germaniya va Italiyaga, 14-dekabrda Efiopiya — Germaniya, Italiya va Yaponiyaga qarshi urush e‘lon qildi. Sharqda esa yapon militaristlari Gollandiya Hindistonini (12-mart), Filippin orollarini (9-iyun) qo‘lga kiritdi.

Sovet qo‘shinlari urushning 2-davri (1942-yil noyabr — 1943-yil oxiri) da Stalingrad jangi va Kursk jangilagm g‘alabalari natijasida Germaniya qo‘shinlari qo‘mondonligi strategik tashabbusni butunlay qo‘ldan chiqardi. SSSRda va boshqa hududlarda qarshilik ko‘rsatish harakati avj oldi. 1943-yil 13-yanvarda Gitler urushda tashabbusni yana qo‘lga olish maqsadida ommaviy safarbarlik e‘lon qildi, lekin shunga qaramasdan 1943-yil may oyiga kelib Shimoliy Afrika (qarang: Shimoliy Afrika kompaniyasi), Angliya-AQSh qo‘shinlari tomonidan ozod qilindi. 1943-yil iyul-avgust oylarida Angliya-Amerika desant qo‘shinlari Sitsiliya orolga tushirildi. 1943-yil 25-iyulda Italiyada Mussolini osib o‘ldiriddi va fashistlar rejimi tugatildi. 3-sentyabrda Italiya so‘zsiz taslim bo‘lganligi haqidagi hujjatga imzo chekdi.

1943-yilga kelib fashizmga qarshi bo‘lgan kuchlar tobora kuchayib bordi. 1943-yil 3-iyunda Jazoirda Fransiya milliy ozodlik qo‘mitasi tuzildi. 12-13-iyulda Germaniyada Ozod Germaniya milliy qo‘mitasi tashkil qilindi. Avgust- sentyabr oylarida Bolgariya vatanparvarlari frontining milliy qo‘mitasi yuzaga keldi. 1943-yil sentyabr-oktyabr oylarida partizanlar bilan Kurashayotgan Fransiya harakati qismlari hamkorligida Korsika orol ozod etildi. 1943-yil 16-yanvarda Iroq, 7-aprelda Boliviya Germaniya, Italiya va Yaponiyaga qarshi urushga kirdi. 1943-yil 13-oktyabrda Italiya o‘zining sobiq ittifoqchisi Germaniyaga qarshi urush e‘lon qildi. SSSR, Angliya va AQSh hukumatlari Italiyani „birgalikda urushayotgan mamlakat“ deb tan oldi. 1943-yil 27-noyabrda Kolumbiya Germaniyaga qarshi urushga qo‘shildi. SSSR, AQSh va Angliya hukumat boshliqlari Tehron konferensiyasida Angliya — Amerika qo‘shinlarini Shimoliy Fransiya tushirish yo‘li bilan Yevropada ikkinchi frontni ochish g‘oyatda muhim ekanligini tan olishdi.

Fashizmga qarshi urushning 3-davri (1944-yil yanvar — 1945-yil may) boshlarida sovet qo‘shinlari SSSR hududining deyarli hammasini ozod qildi. Ittifoqchilar 1944-yil 6-iyungacha Fransiya o‘z qo‘shinlarini tushirib,



Yevropada ikkinchi frontni ochdilar va sentyabrda Fransiya qarshilik ko'rsatish harakati kuchlarining faol ishtirokida Fransiya hududining deyarli hammasi fashist bosqinchilaridan ozod qilindi. 1944-yil 27-martda sovet qo'shinlari Ruminiya hududiga kirib bordi. 13-martda SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya hukumatlari Germaniya tomonida turib urushayotgan Mojariston, Ruminiya, Bolgariya va Finlandiyaga urushni to'xtatish haqida murojaat qildi. Natijada bu mamlakatlarda fashizmga qarshi bo'lgan kuchlar harakati faollashdi. 1944-yil mayda Ruminiyada fashizmga qarshi Birlashgan ishchilar fronti, Mojaristonda esa Vatanparvar kuchlar fronti, (2-dekabrda Milliy mustaqillik fronti) yuzaga keldi. 21-iyulda Polshada Milliy ozodlik qo'mitasi tashkil bo'ldi.


1944-yil 25-iyulda Gitler mamlakatda „o'ta ommaviy safarbarlik“ e'lon qildi. Gitlerning bu tadbiri ham yordam bermadi. U bosib olgan mamlakatlarda ozodlik harakatlari avj oldi. 1944-yil 1 avgust-2-oktyabrda Varshavada, 19-25-avgustda Parijda, 23-avgustda Ruminiyada, 6- 10-sentyabrda Bolgariyada fashist bosqinchilariga qarshi qurolli qo'zg'olonlar bo'ldi. Natijada, jahon urushi maydonida kuchlar nisbati tubdan o'zgardi. Germaniya ittifoqchilari o'rtasida parokandalik boshlandi. 1944-yil 26-yanvarda Liberiya, 24-avgustda Ruminiya, 15-sentyabrda Finlandiya, 28-dekabrda Mojariston, 1945-yil fevralda Peru, Urugvay, Venesuela, Turkiya, Misr, Livan, Suriya, Saudiya Arabistoni, Paragvay, Ekvador, Chili kabi mamlakatlar, 27-martda esa Argentina fashistlar Germaniyasi va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qildilar.

Sovet qo'shinlari 1944-yil o'rtalarida Markaziy va Janubi-sharqiy Yevropa mamlakatlarini vatanparvar kuchlar yordamida ozod qilishga kirishdi. Shu yili ittifoqchi qo'shinlar Shimoliy Italiyani va G'arbiy Germaniyaning bir qator rayonlarini ozod qildi. 1945-yil 4-11-fevralda SSSR, AQSh va Angliya davlat rahbarlari ishtirokida bo'lgan Qrim (Yalta) konferensiyasida, Germaniyani batamom tor-mor qilish rejalari, shuningdek, dunyoning urushdan keyingi siyosiy tuzilishi masalalari xususida kelishib olindi.

Amerika-Angliya qurolli kuchlari Tinch okeanidagi Marshall va Mariana orollarini (1944), Filippinni va Yaponiyaning Okinava orolni (1945) egalladi. 1945-yil 25-aprelda sovet va Amerika qo'shinlari Elbada uchrashdi. 3-mayda Angliya qo'shinlari Birma qarshilik harakati kuchlari bilan hamkorlikda poytaxt — Rangunni ozod qildi.

1945-yil 2-mayda Sovet qo'shinlari Berlinni ishg'ol qildi. A. Gitler o'zini o'ldirdi. 8-mayda Berlin yaqinidagi Karlsruhda Germaniya oliy qo'mondonligi vakillari fashistlar Germaniyasining Ikkinchi jahon urushida so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi hujjatga imzo chekdi. 9-mayda sovet qo'shinlari, chex qarshilik harakati kuchlari ishtirokida Chexoslovakiyaning poytaxti Pragani ozod qildi.

SSSR, AQSh va Angliya hukumatlari boshliklarining Berlin konferensiyasi, asosan, Germaniya masalasi, uning keyingi taqdiri va taraqqiyot yo'li, uni demilitarizatsiyalash va demokratiyalash masalasi ko'rildi.



Konferensiyada SSSR hukumati Yaponiyaga qarshi ittifokchilar bilan birgalikda urushga kirishini yana bir bor ta'kidladi. AQShning havo kuchlari harbiy zaruriyat yo'qligiga qaramay Yaponiyaning Xirosima (1945-yil 6-avgust) va Nagasaki (9-avgust) shaharlariga atom bombalari tashladi. Buning natijasida har ikki shahar aholisidan 102 mingga yaqin kishi halok bo'ldi, 16 ming kishi bedarak ketdi, 61 ming kishi yarador va 324 ming kishi kuchli radiatsiya bilan zaharlandi.

1945-yil 8-avgustda SSSR olgan majburiyatiga binoan Yaponiyaga urush e'lon qildi va 9-avgustda unga qarshi harbiy harakatlarni boshladi. SSSR bilan birgalikda, 10-avgustda Mongoliya Xalq Respublikasi (MXR), 11-avgustda Xitoy xalq ozodlik armiyasi yapon bosqinchilariga qarshi urushga kirishdi.

Manjuriyadagi yapon qo'shinlari sovet armiyasi tomonidan tor-mor qilingach, Yaponiya 1945-yil 2-sentyabrda so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi hujjatga qo'l qo'ydi. Shu tariqa Ikkinchi jahon urushiga yakun yasaldi.


Nyurnberg sud jarayoni (1945-yil 20-noyabr — 1946-yil 1-oktyabr)da natsist harbiy jinoyatchilari ustidan xalqaro sud o'tkazilib, unda 20 kishi: G. Gering (u o'zini o'ldirdi), V. Keytel, E. Kaltenbrunner, I. Ribbentrop, G. Gess va boshqa adolatli jazolandi. Fashistik tashkilotlar: Natsional-sotsialistik partiya (natsistlar), Gestapo, SS, SD, butun insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatchi tashkilotlar deb e'lon qilindi. Nyurnbergda bo'lib o'tgan bu xalqaro sud Ikkinchi jahon urushiga so'nggi nuqtani qo'ydi.

Ikkinchi jahon urushiga 72 davlat jalb etildi. Urushda ishtirok qilgan mamlakatlarning 110 million aholisi unga safarbar etildi. Harbiy qarokatlar 40 davlat hududida bo'lib o'tdi, barcha harajatlar 4 trillion dollarni tashkil etdi. Urush davomida 62 million kishi (shu jumladan 27 million SSSR fuqarosi) halok bo'ldi.

1941-yil 22-iyunda Germaniya SSSRga hujum qilgach, SSSR tarkibida bo'lgan O'zbekiston xalqlari ham bu urush girdobiga majburan tortilgan edi. O'sha kuni mamlakatda harbiy holat joriy etildi.

Gitlerchilarning Sharqqa doir harbiy rejalarida SSSRni qisqa muddatli kompaniya jarayonida mag'lub qilish va urushni 1941-yil kuzida tamomlash mo'ljallangan edi. Yashin tezligida boshlangan urush sovet rahbariyatida sarosimani yuzaga keltirdi. 29-iyundagina Xalq Komissarlari Soveti (XKS) nomidan joylarga ko'rsatmalar yuboriddi. I. V. Stalin faqat 3-iyuldagina xalqqa murojaat bilan chiqdi.


1941-yil 30-iyunda Davlat mudofaa qo'mitasi (DMQ) tuzildi. Uning raisi I. V. Stalin 8-avgustda SSSR Qurolli kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni lavozimini egalladi. Urushning dastlabki kunlari mamlakatning barcha iqtisodiy ma'naviy kuchlarini zudlik bilan mudofaa manfaatlariga bo'ysundirish, xalq xo'jaligini to'liq harbiy izga solish lozimligi xususida qarorlar, ko'rsatmalar qabul qilindi.



Urush davrining musibatlarini o'z boshidan kechirgan kishilarning xotiralaridan ma'lum bo'lishicha, odamlar o'sha vaqtda sovet rejimini himoya qilish zaruriyati haqida kam o'ylar edilar. Xalqning aksariyat qismi mustabid tuzumni qoralar edi. Chunki, xalqning xotirasidan hali Turkiston Muxtoriyatini qonga belanganligi, istiqloqlilik harakatining zo'rvonlik bilan bostirilishi, diniy e'tiqod uchun ta'qib qilishlar esdan chiqmagandi. Jamoalashtirishning stalincha zo'rvonlik bilan amalga oshirilishi natijasida yuz bergan jinoyatlar xotiradan ko'tarilmagan edi. Mustabid tuzumning ommaviy qatag'onlaridan qolgan yaralar hali bitmagan edi. Biroq, o'zbek xalqining fashizmga bo'lgan nafrati mustabid tuzum yetkazgan g'am-alamni orqa o'ringa surib qo'ydi va u dushmanga qarshi o'tlandi. Shuningdek, mustabid tuzumning „mafкура mashinasi“ ham benuqson ishladi — u SSSR tarkibidagi barcha mustamlaka xalqlarni fashizmga qarshi kurashga safarbar qila oldi. O'zbek xalqining Ikkinchi jahon urushidagi ishtirokining axloqiy-ma'naviy jihatdan asosi shundaki, bu urushda o'zbek xalqi fashizmdan faqat SSSRnigina emas, eng avvalo, O'zbekistonni himoya qilishni, uni yana bir bosqinchidan saqlab qolishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Sovet-olmon urushi boshlang'ich davrining eng murakkab vazifalaridan biri iqtisodiyotni harbiy izga solish edi. Bu mas'uliyatli vazifani SSSRning qariyb 40 % aholisi istiqomat qiladigan, ko'mirning 63 % qazib olinadigan, po'latning 50 % ishlab chiqariladigan, donning 38 % yetishtiriladigan, ayniqsa, ko'pgina mudofaa korxonalari joylashgan hududni fashistlar bosib olgan bir paytda hal qilish kerak edi. Front yaqinidagi hududlardan mamlakat ichkarisiga ko'chirilayotgan aholi, sanoat korxonalari, o'quv-yurtlari va boshqaning ko'pchiligi O'zbekistonga yuborildi. Chunonchi, O'rta Osiyo va Qozog'istonga evakuatsiya qilingan 308 sanoat korxonasining 104 tasi („Lentekstilmash“, „Rostselmash“, „Krasniy Aksay“, Moskvadagi „Elektrokabel“ va „Pod'yemnik“, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, „Krasniy put“, Kiyev „Transsignal“ zavodlari, Stalingrad kimyo kombinati va b.), 30 dan ortiq harbiy gospital, harbiy artilleriya (to'pchi) akademiya, bir necha harbiy bilim yurtlari ko'chib keldi.

Rossiya hududidan turli millatga mansub 200 ga yaqin yozuvchi va shoirlar (mas, A. Axmatova, A. Tolstoy, V. Yan, M. Shaginyan va b.) Toshkentga ko'chib kelib, shu yerda ijod qildilar. Rossiya, Ukraina va Belorussiyaning fashistlar bosib olgan hududlaridan 1 milliondan ortiq kishi, jumladan 200 ming bola O'zbekistonga evakuatsiya qilinib, ularga 135 ming kv.m hajmda uy-joy ajratib berildi. Ko'pgina o'zbek oilalari ikkita va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga (jumladan, Sh. Shomahmudovlar oilasi — 14, H. Samadovlar oilasi — 12, M. Jo'rayeva va Ashurxo'jayevlar oilasi 8 tadan bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. 1943-yil oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olinib, ularga xaqiqiy insonparvarlik va mehr-shafqat namunasi ko'rsatildi. O'sha davr bilan hozirgi vaqtni solishtirganda odamlar ancha mehribon, urush bo'lishiga qaramasdan, oziq-ovqatlar tanqisligi muammosi



bor davrda odamlar yetim boshini silashgan va o'z uyidan to'ridan joy bergan. Uyda bir dona krovat bo'lsa o'shanda asrab olingan bola yotgan, qolganlar yerda yotgan.

O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalarini nihoyatda qisqa muddatda ishga tushirildi. 1941-yil dekabrda evakuatsiya qilingan korxonalarining qariyb 50 tasi, 1942-yil 1-yanvarda esa barchasi qayta qurilib to'la quvvat bilan mahsulot bera boshladi. Bu harbiy korxonalarini ishga tushirishga shaharliklardan tashqari qariyb 500 ming kolxozchi dehqonlar jalb qilindi. Korxonalarini harbiy izga o'tkazish harbiy kommunistik usulda amalga oshirildi: 1941-yil 26-iyundan boshlab mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish, katta yoshdagilar uchun xaftada 6 kunlik ish joriy etildi, ish vaqti 11 soatgacha uzaytirildi, ta'tilga chiqish bekor qilindi. Idora xizmatchilari, uy bekalari, o'quvchilar ishlab chiqarishga jalb qilindi. Agar 1940-yilda sanoat ishchilari orasida xotin-qizlar salmog'i 34 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 1942-yilda bu ko'rsatkich 63,5 % ga yetdi. Mehnat intizomini buzganlar uchun jazo choralari keskin qo'yildi. Korxonalaridan o'zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddatga qamoqqa hukm qilindi. 1941-yil dekabrda O'zbekiston sanoat korxonalaridan 230 tasi (birgina Toshkentda 63 korxonalar) harbiy izga ko'chirilib, front uchun qurol-yarog' ishlab chiqarishga kirishdi.

O'zbekistonda harbiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoatning o'sishi va rivojlanishi bilan birga xom ashyo va yoqilg'i-energetika bazasini kengaytirish vazifasi ham keskin bo'lib turdi. Ayniqsa, rangli metallarga, neft va ko'mirga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. 1942-yilda Langar molibden koni zaminida molibden fabrikasi barpo etildi. Qo'ytosh va Qoratepa rangli metallar konining quvvati keskin oshirildi. Olmaliqda mis va b. rangli metallarning boy konlari topildi. Angren ko'mir koni respublikaning birinchi ko'mir markaziga aylandi. 1942-yil boshlarida 1-Oqtepa va Z-Oqqovoq GESlari, shuningdek, Farhod GES umumxalq hashari bilan bunyod etilishi respublikada front ehtiyojlari uchun ishlayotgan sanoat korxonalarini elektr energiyasi bilan ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

O'zbekistonda urush yillarida 280 ta yangi korxonalar barpo etildi. Respublikaning sanoat potentsiali 1945-yilga kelib 1940-yildagiga nisbatan deyarli 2 barobar ko'paydi, neft qazib olish 4 barobardan ziyod, metall ishlash tarmoqlari mahsulotlari 4,8 barobar, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 barobar, ko'mir qazib chiqarish 30 barobardan ko'proq, po'lat va prokat eritish 2 barobar, elektr energiyasi ishlab chiqarish 2,42 marta ortdi. Buning natijasida O'zbekiston urush yillarida front uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 17100 taminomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 million dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 million dona granata, dala radiostansiyalari uchun 3 million radio lampa, 330 mingga parashut, 18 ta harbiy-sanitariya va hammom kir yuvish poyezdi, 2200 ta Ko'chma oshxonalar



va ko'pgina harbiy anjomlar yetkazib berish imkoniga ega bo'ldi. Respublika yengil sanoat komissarligi korxonalari 1941—1945-yillar mobaynida jangchilar uchun 7518,8 mingta gimnastyorka, 2636,7 mingta paxtali nimcha, 2861,5 mingta armiya etigi tayyorlab berdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi qo'lga qurol olib jang qilgan o'zbekistonlik jangchilarning umumiy tarkibidan 263000 dan ziyod kishi halok bo'ldi, 132670 kishi bedarak yo'qoldi, 60452 vatandoshimiz urushdan nogiron bo'lib qaytdi. Shuningdek, un minglab o'zbekistonlik jangchilar asirlikda bo'ldi. Mustabid tuzum ular bilan „ochiqchasiga“ gaplashdi. Demak, frontga safarbar qilinganlarning xar uchtasidan bittasi uyiga qaytmadi. Umuman, SSSR bo'yicha urush davrida fashistlar qo'lida 6,2 million kishi asirlikda bo'lgan. Urush oxiriga kelib ulardan 4 million kishi halok bo'lgan. Omon qolgan asrlar soni 1 milliondan sal ko'proq edi. Ulardan 60 % dan ko'prog'i GULAG qamoqxonalari tashlandi. Aybsiz surgun qilinib, sovet konslagerlariga jo'natilgan yoki otib tashlanganlar orasida O'zbekistonliklar ham oz emasdi. taxminan hisoblarga qaraganda, o'zbekistonlik harbiy asirlardan 15 mingdan ortig'i sovet konslagerlariga yuborilgan. Ikkinchi jahon urushidagi bu g'alaba millionlab begunoh kishilarning, jumladan, O'zbekiston xalqining qoni, haddan ziyod mashaqqatli mehnati va uning buyuk insonparvarligi tufayli qo'lga kiritildi.



O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, 35 jildli Xotira kitobi tayyorlanib, nashr qilindi. Toshkentdagi Mustaqillik maydoni xiyobonida maxsus majmua qurildi (2000). 9-may — kuni yurtimizda Xotira va Qadrlash kuni sifatida har yili nishonlanadigan bo'ldi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari bilan 1999-yili 9-may kuni O'zbekiston poytaxti Toshkentda Xotira maydoni ochildi. Ushbu kundan boshlab 9-may – Xotira va qadrlash kuni umum xalq bayrami keng nishonlanib kelinmoqda. Ushbu bayram mustaqil O'zbekistonda asrlar davomida qahramona, o'lkamizni himoya qilgan, uning erkinligi, mustaqilligi va xalqining tinchligi uchun kurashgan vatandoshlar xotirasiga bag'ishlangan. Xotira va qadrlash tushunchasi chuqur ma'noga egadir. Ushbu kunda fashizmga qarshi kurashishlarda qatnashgan, o'z Vatanini himoya qilishda

joniga fido qilgan, shuningdek To‘maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Nadjmiddin Kubro, kabi qahramonlar va asrlarda xalq orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan Qodiriy, Behbudiy, Munavvar-qori, Cho‘lpon, Avloniy, Fitrat, Usmon Nosir kabi milliy qahramonlarimizni ruhini shod etib eslash ham farz ham qarzdir. Insoniyati kkinchi jahon urushida qatnashgan, bu ayovsiz jangu jadalda qahramon bo‘lganlar xotirasini aslo unutmaydi.

Ikkinch jahon urushida halok bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og‘ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqlarda ham o‘zligini yo‘qotmagan, iymoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko‘rsatish milliy qadriyatga aylandi.

Prezidentimiz Islom Karimovning ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarini mukofotlash to‘g‘risidagi farmon va qarorlari ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga ko‘rsatilayotgan ehtiromning yana bir yorqin ifodasidir. Mazkur farmon va qarorlarga muvofiq barcha shahar va tumanlarimizda, qishloq va mahallalarimizda urush qatnashchilari va nogironlariga muntazam yubiley medallari va pul mukofotlari tantanali ravishda topshiriladi.

Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug‘. O‘tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e‘zozlamoq xalqimizga xos ezgu



fazilatlardandir.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimovning bayram munosabati bilan so‘zlagan quyidagi gaplarini keltiramiz “Yurtimizda muqaddas Xotira va qadrlash kuni deb nom olgan bu qutlug‘ bayram bilan avvalo bugun safimizda sog‘-salomat hayot kechirayotgan urush qatnashchilarini, nuroniy-otaxonlarimizni, barcha-barcha yurtdoshlarimizni bag‘rimga bosib, chin qalbidan samimiy tabriklayman”.

Biz 9 - may – G‘alaba kuniga Xotira va qadrlash kuni deb nom berganimizga, mana, 16 yil to‘lmoqda. Bugungi kunda hech ikkilanmasdan aytish mumkin: bunday nom olgan bu sana yurtimizda umumxalq bayramiga, haqiqiy an‘anaga aylanib qoldi. Nega deganda, xotira va qadrlash tushunchalari

asl milliy qadriyatlarimizga javob berib, ota-bobolarimizdan qolgan ham diniy, ham insoniy urf-odatimizdir.

O'tganlarning nomlarini yod etish, xotirasini hurmat bilan eslash, ularning arvohlarini shod qilish muqaddas odat sifatida qon-qonimizga singib ketgan. Aynan shu maqsadga erishish yo'lida Vatanimizning ertangi kuni, kelajagi bo'lmish, bizning tayanchimiz va suyanchimiz bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, farzandlarimizga zamonaviy bilim berish va ularni haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish eng ustuvor vazifamiz ekanini hech qachon unutmashimiz darkor.

Maqolamizni yana yurtboshimizning quyidagi misralari bilan yakunlashni o'rinli topdik, "Ayni shu kunda yurtimiz bilan birga bo'lib, shu kunning ham xursandchiligini, ham iztirobini urush qatnashchilari, muhtaram faxriylarimiz bilan baham ko'rib, g'oyibona bo'lsa ham ularning barchasini bag'rimga bosib, yana va yana bir bor butun xalqimizni anashu tarixiy sana bilan tabriklashni o'zimning muqaddas burchim deb bilaman. Fursatdan foydalanib, barcha vatandoshlarimizga tinchlik-omonlik, baxt va omad tilayman.



**Ajdodlarni xotirlash va keksalarni e'zozlash, ulug' qadriyat hisoblanib, bu borada mamlakatimizda har yili qabul qilinayotgan dasturlarda yoshi ulug', nuroniylarga bo'lgan hurmat, e'tibor diqqat markazidadir**

9 - may yurtimizda keng miqyosda “Xotira va qadrlash kuni” katta tantanalar bilan nishonlanib 1941-1945 - yillar urush va mehnat frontida tinchlik uchun kurashib halok bo‘lgan jasur va matonatli o‘g‘lonlar xotirasi yod etiladi hamda urush va mehnat frontida jasorat ko‘rsatgan nuroniylarimiz e‘zozlanishi xalqimizga xos qadriyatlar ko‘zguasi sanaladi.

Nuroniylarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni holidan xabar olish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kasaba uyushmalarida an‘anaga aylangan. “Xotira va qadrlash kuni”ni munosib kutib olish va nishonlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O‘zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi hamkorligida joriyyilning 6 - 8 - may kunlari qator urush va mehnat fronti faxriylari, nuroniylar, afg‘on urushi qatnashchilari xolidan xabar olishni rejalashtirgan. Yurtimizning bugungi tinch-osoyshta hayoti uchun jasorat ko‘rsatib fido bo‘lgan vatandoshlarimiz xotirasini yot etish esa eng oliy vazifamizdir. Zero “Inson aziz, xotira-muqaddas”dir.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

### 9 - MAY NIXOTIRA VA QADRLASH KUNI DEB E‘LON QILISH TO‘G‘RISIDA

Urush faxriylari, ishtirokchilari va urushda Qurbon bo‘lganlarning oilalaridan tushayotgan ko‘plab iltimosnomalarni, xalqimizning, jamoat tashkilotlarining bildirayotgan xohish-irodasini inobatga olib, Ikkinchi jahon urushida fashizmga qarshi kurashib halok bo‘lganlarning, mamlakatimiz ozodligi va mustaqilligi uchun jon bergan O‘zbekistonning barcha o‘g‘lonlari xotirasini abadiylashtirish muhimligini nazarda tutgan holda, bugun ham saflarimizda turib Vatan obro‘-e‘tiborini yuksaltirishga yoshlarni ma‘naviy-axloqiy

jihatdan





tarbiyalashga hissa qo‘shayotgan barcha kishilarning hurmatini joyiga qo‘yish maqsadida:

1. 9 - may Xotira va Qadrlash kuni deb e‘lon qilinsin.

2. Toshkent shahar hokimligining poytaxtimiz markazida Xotira maydoni tashkil etish, ushbu maydon qurilishini 1999 - yilning 20 - apreliyacha tugallash haqidagi taklifi ma‘qullansin.

3. Xotira va Qadrlash kunining umumxalq bayrami sifatida, keng nishonlanishini ta‘minlash barcha davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining, idora va korxonalarining, birinchi galdagi vazifasi, barcha O‘zbekiston fuqarolarining or-nomus, vijdon ishi va an‘naviy burchi deb belgilansin. Fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga hissa qo‘shgan, Vatanimiz mustaqilligi uchun jonini, bor kuch-quvvatini ayamagan biror bir faxriy, biror bir kishi unutilmasligi kerak. Ularning har biriga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatilishi shart.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, barcha viloyat hokimliklari Nukus shahri va barcha viloyat markazlarida shunday Xotira maydonlarini bunyod etish rejasini ishlab chiqsinlar hamda uni amalga oshirishchora-tadbirlarini ko‘rsinlar.

Xotira va Qadrlash kuni bilan bog‘liq tadbirlar yuksak axloqiy-ma‘naviy saviyada o‘tkazilsin, faxriylarga, Vatanimiz mustaqilligi va sha‘nini himoya qilganlarning barchasiga moddiy yordam ko‘rsatilsin.

### **XOTIRA – MUQADDAS, QADR – AZIZ.**

Insonga har kuni tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik kerak. Tinchligini yo‘qotgan xonadon ham, mamlakat ham also xotirjam bo‘la olmaydi. Tinchlik-xotirjamlik – taraqqiyot garovidir.

Biz azal-azaldan tinchliksevar xalqmiz. Aynan shu g‘oya targ‘ib milliy ma‘naviy merosimiz bor. Ularning barida tinchlikning qadriga yetish targ‘ib etiladi, urush esa batamom qoralanadi.

9 - mayni Xotira va Qadrlash kuni tarzida umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi.

II jahon urushida O‘zbekistonimizdan 1 million 433 ming 230 nafar odam ishtirok etdi. 604 ming 52 nafar ham yurtimiz urush maydonlaridan nogiron bo‘lib qaytdi, 450 mingdan ortiq va tandoshimiz esa qonli janglarda halok bo‘ldi. Hamon oramizda qanchadan-qancha urush qatnashchilari, front


ortida mehnat-mashaqqat chekkanlar bor. O'tganlarni xotirlash, safimizda yurganlarning esa qadriga yetish kerak. Mustaqil O'zbekiston xalqi va davlati avval-boshdan tinchlik-totuvlik tarafdori sifatida maydonga chiqdi. Ana shu asoslarga ko'ra, mustaqillik yillarida ham bizda 9 - may umum xalq bayrami sifatida, 1999 - yildan boshlab esa Xotira va Qadrlash kuni sifatida nishonlaymiz. Darhaqiqat, Mustaqil davlatning bayramlari ham xalq tabiati va an'analarga mos bo'lishi kerak. Chunki har bir xalq qanday yashashi, qadrlashi, qaysi sanalarni tantana qilishini o'zi hal etadi. Bunda o'z tarixidan kelib chiqadi, bugunini o'ylaydi va kelajagini ko'zda tutadi.



O'z mustaqilligiga erishgan davlatlar ichida O'zbekiston buning chinakam namunasini ko'rsatdi. Xotira va Qadrlash kuni endi o'zgacha, aniqrog'i, milliy xususiyat kasb etdi. Bu bayramning mazmun-mohiyati butkul o'zgardi – u xalq xotirasi va insonni qadrlash kuniga aylandi. Xalq xotirasi deganda kishi ko'z o'ngidan Vatan ibtidosidan buguniga qadar shu yurt, shu xalq deb kurashgan, kuch-qudrati, aql-zakovatini ayamagan, kerak bo'lsa, shu yo'lda jon fido qilgan buyuk zotlar bir-bir o'tadi. Spitamen, Shiroqdan Turkon Xotun, Mahmud Torobiygacha, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bekdan Zahiriddin Muhammad Boburgacha, Jaloliddin Manguberdidan, Najmiddin Kubrogacha yodga tushaveradi. Xotira va Qadrlash kuni chinakam milliy – umumxalq bayramiga aylandi. Shu kuni O'zbekistonning barcha qabristonlaridan ziyoratchilar arimaydi.

Bu bayramda Ikkinchi jahon urushida halok bo'lganlar xotirlanadi, Afg'oniston urushida halok bo'lganlar O'rta Osiyo sathining begunoh qurbonlari sifatida eslanadi, umuman, o'tganlar ruhi yodga olinadi, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarishchog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasi oldida hurmat bajo keltiriladi. Bu dunyoning markazida hazrati inson turadi. Shuni tan olmagan har qanday g'oyaning mag'zi – puch, poydevori – bo'sh, imorati – omonat. Fashizm ham, sho'ro mafkurasi ham xuddi ana shu – insonga, uning tabiati, fe'l-atvori, maqsad-muddaolari, uning ehtiyoj qolmagani uchun butkul mag'lubiyatga uchradi. Holbuki, jangda halok bo'lgan tirik jonning hech biri noma'lum emas edi. Har birining ota-onasi, shaharu qishlog'i, mahalla-ko'yi, qavmu qarindoshi, qo'ni-qo'shnisi, boringki, umr yo'ldoshi yoxud sevgan!..

Ochig'i, o'tgan zamonda qurbonlarni xotirlash ham, tirik qolganlarning qadriga yetish ham shunchaki, ya'ni rasmiyat uchungina edi, xolos. Odamlar shaxs sifatida emas, ommaning tarkibiy qismi tarzidagina eslanardi. Holbuki,



har qanday siyosat ham, aslida, inson uchun, uning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak emasmi?!

Insonni, uning tabiatini mensimaslik, shaxsni shaxs o‘rnida ko‘rmaslik eski mafkuraning mag‘zi-mag‘ziga singib ketganaqida edi. Odamga faqat siyosiy g‘oyalar yo‘lidagi bir murvatdek qaralar edi. Siyosatda ham, hayotda ham shu bema’ni qilinar edi.


Endi Toshkent shahrining markazida – Xotira may donidagi 1999 - yil 9 - may kuni ochilgan qaddidol Motamsaro ona siymosi poyiga bitilgan: “Sen doimo qalbindasan, jigarim!” – degan so‘zlarning insoniyligini, samimiyligini o‘ylab, bir yurakdan his etib ko‘raylik. Halok bo‘lgan tirik jonki mningdir jigar porasi, demak, shu Vatanning farzandi-ku! Har birining ortidan qancha odam qon yig‘lab qoldi. Umrining so‘nggi lahzasiga qadar ko‘zlarida yoshi qurimay, o‘g‘lini – jigar porasini kutib o‘tgan qanchadan-qancha motamsaro ona bor edi. Dahshatli urushda halok bo‘lgan ota jonini ko‘rmagan, unga, loaqal, bir bora bo‘lsin: “Dadajon!” – deb murojaat qilolmay yashayotganlar – qancha.

9 - mayning Xotira va Qadrlash kuni deb e‘lon qilinishi bizda siyosatning insoniylashganidan, davlatning hazratiinsonga qayishganidan dalolat beradi. Urushda halok bo‘lgan har bir o‘zbekistonlik – Vatanimiz farzandi edi. Ularni yoddan chiqarishga hech birimizning haqqimiz yo‘q. Istiqlol yillarida 35 jildlik “Xotira” kitobi chop etildi. Endi esa urush qurbonlarining nomi mamlakat poytaxtidagi Xotira maydoniga o‘rnatilgan temir “daftar” gazarha harflar bilan bitib qo‘yildi. Bu yerga ziyoratga kelgan har bir vatandoshimiz, albatta, o‘z jigari, hech bo‘lmaganda, biror qo‘shnisining nomiga duch keladi. Beixtiyor, o‘tganlar ruhiga tilovatu duolar qilib, yuziga fотиha tortadi...

Yaqinda Surxondaryo viloyati “daftar” da ziyoratga kelgan bir qizning, aftidan, onasiga qo‘ng‘iroq qilib, yig‘lab: “Bobomning ism-familiyalarini topdim! Bor ekanlar!” – deb aytayotganiga guvoh bo‘ldik. O‘lgan o‘lib ketdi. Lekin uning yodi tiriklar uchun befarq emas-ku. Ehtimol, ona qizini ataylab shuni aniqlab kelish uchun Toshkentga yuborgandir...

Xotira maydonida temir “daftar”larda qator-qator nomlar yozib qo‘yilgan bo‘lsa, beixtiyor bu ism-familiyalarning har biri bir inson ekanini o‘ylaysiz, ular orasidan o‘zingizga tanish, qalbingizga yaqin, qoni qoningizga tutash kishilarni qidirasiz va topasiz ham...

Xullas, O‘zbekistonning xohlagan shahari, istalgan qishlog‘i yoxud ovulidan kelgan odam buy erga kirib, qay bir yaqinining muborak nomini topadi, albatta. 1999 yil 9 maydan e‘tiboran bu maydon mamlakatimiz fuqarolarining qalbiga yaqin, o‘tganlar ruhi yodga olinadigan, duolar ijobat bo‘ladigan go‘shasiga – muqaddas makonga aylandi. Shundan buyon bu yer – ziyoratchilar bilan gavjum.



Jumladan, yolg'iz va kam ta'minlangan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari turar joyi va uy xo'jaliklarini ta'mirlash, obodonlashtirish hamda o'z uy-joyiga ega bo'lmaganlariga turar joy ajratish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Mamlakatimizning turli mintaqalarida istiqomat qiluvchi 1941 – 1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylari vakillarining Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan marosimlarga temir yo'l yoki avtomobil transportida kelib-ketishi, mehmonxonalarda joylashishi, ovqatlanishi, madaniy hordiq chiqarishi hamda zarur hollarda kiyim-kechak bilan ta'minlanishi ham ko'zda tutilgan.

Davlat tarafidan ko'rsatilayotgan bu g'amxo'rliklarning bari mazkur umumxalq bayrami mazmunidagi qadrlash mohiyatining amaliy jihatini yaqqol namoyon etadi. Xullas, ushbu umumxalq bayramining yangicha talqini tufayli xotira ham, qadrlash ham milliy ongimizda muayyanlashgan falsafiy tushunchaga aylandi. "Falsafaning bosh muammosi nima?" – degan savol, qariyb, bashariyat yaratilganidan buyon kishilar bahsu munozarasiga sabab bo'lib kelayotgani hech kimga sir emas. Bu munozarani qanday davom ettirish, bugununga qay tarzda yechim topish – ilimning ishi.

Biroq sharqona, sodda, eng muhimi, xalqona falsafa shuki, inson ong-tafakkuri uchun asosiy muammo – borliqning abadiyligi –yu kishi umrining o'tkinchiligi o'rtasidagi qarama-qarshilikda mujassam. Xotira – odamlarning vafotidan keyin ham bu dunyoda yashashi uchun imkon beradigan birdan-bir makon. Odamlar – ortda qolganlar xotirasida yashashga intilish- ilinji kishini tarbiyalaydi. Uni ezguliklarga, kishilarning biror-birkoriga yarab qolishga, umrni zoe ketkazmaslikka undaydi.

Shunday kishilar tirikligida ham qadr topadi. Xalq hech qachon yaxshi farzandlarini sedan chiqarmaydi. Xalqning xotirasiz yashashi also mumkin emas...



Xotira va Qadrlash kuni – dunyo qarashimizdagi ana shunday tamoman yangi falsafiy hodisa. Mustaqil O'zbekiston siyosatidagi bu falsafiylikni sezmaslik, tan olmaslik, targ'ib qilmaslik mumkin emas. Mutanosiblik, milliylik, insoniylik, falsafiylik, rag'bat birlashgan joyda hayot daraxti gullab-yashnaydi. Hayot – hamisha shirin. Bayramlar insonning qalb torlarini cherta olishi bilan hayotni yanada shirinroq qiladi, odamlarni elu yurtni ko'proq sevishga undaydi, olamda mehr-muruvvat, hurmat-e'tibor, qadr-qimmat va oqibat urug'larining ko'proq sochilishiga hissa qo'shadi.




Poytaxtning Xotira maydoni ziyorati kishida kamida ana shunday his-tuyg'ular, fikr-o'ylar uyg'otadi.

Endi kimki insonligini esga olmoqchi, umrning o'tkinchiligini, bir lahza bo'lsin, dildan his etmoqchi, hayotini bekorga o'tkazmaslik, Vatanga qo'ldan kelgani qadar fidoyi-larcha xizmat qilish fikrini mustahkamlamoqchi bo'lsa, shu pok ruhlar kezib yurgan muqaddas makonni ziyorat qilsin.



Shunday qilib, istiqlol yillarida bayramlarimizga munosabatimiz tubdan yangilangan orqali milliy ongimiz, insoniy tushunchalarimiz, falsafiy olamimiz butunlay o'zgarayotgani, XXI asrga tamoman boshqacha ruhiy-ma'naviy dunyoqarashimiz bilan kirib kelganimizni payqash qiyin emas. Xotira va Qadrlash kunini munosib nishonlashdan ko'zlagan bosh maqsadimiz – Vatan himoyachilarini xotirlash, oramizdagi fidoyi insonlarning, tinchlikning qadriga yetish, urushni qoralash, tinch-osoyshta yashayotganimiz, turmush farovonligini ta'minlash uchun ter to'kib, unumli mehnat qilayotganimizning shukronasini qilishdan iborat. Bu har qanday kishini ma'nan rag'batlantiradi, uni yashashga, yaratishga, elu yurtga sadoqat va qat'iyat bilan xizmat qilishga undaydi. Zero xotira hamisha muqaddas, qadr azizdir.





## **Insoniyat tarixidagi eng dahshatli urush aql bovar qilmas voqealar bilan ham tarixda qolgan.**

1) Ikkinchi jahon urushida o'sha davrda mustaqil bo'lgan 73 ta davlatdan 62 tasi ishtirok etgan va bu jarayon yer aholisining 80 foizini qamrab olgan. Urushga aralashmay qolgan 11 ta davlat ham u yoki bu jihatdan qaysidir tarafga yon bosishga majbur bo'ldi. Jangovar harakatlar 40 ta davlat, uch qit'a va to'rt okeanda olib borilgan. 110 million qurolli askar ishtirok etgan bu urushda taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, 60 million kishi qurbon bo'lgan. Shu bois ham bu urush chin ma'noda haqiqiy Jahon urushiga aylanib ketgani e'tirof etiladi.



2) Ikkinchi Jahon urushi yillarida O'zbekiston aholisi taxminan 6.5 mln kishini tashkil qilardi. Janglar kechayotgan hududlardan mamlakatimizga 1.5 million nafardan ortiq kishi ko'chirib kelingan va ularning hammasiga bag'rikeng yurtdoshlarimiz o'zlari ham urushni boshidan kechirayotganlariga qaramay bor mehrlarini berishgan. Hozirda Yevropa Ittifoqi aholisi 500

milliondan ortiq va bu ittifoqqa a'zo davlatlar dunyoning eng rivojlangan va boy davlatlari hisoblanadi. Qizig'i bugungi kunda urush hududlaridan qochib borayotgan 1.5 million qochoq bu davlatlar uchun shu qadar muammo bo'lmoqdaki, bu masala ittifoqning darz ketishiga ham sabab bo'lishi hech gap emas.

3) Shu kungacha yagona va umid qilamizki oxirgi atom bombardimoniga Yaponiyaning Nagasaki va Xirosima shaharlari duchor bo'lishgan. AQShlik harbiylar tomonidan Xirosima shahriga reja asosida atom bombasi tashlangan bo'lsa, Nagasaki shahri taqdirning achchiq hazili tufayli bu qurolga nishon bo'lgan. Aslida ikkinchi bomba Kokura shahriga tashlanishi kerak edi, lekin ob-havo uchishga noqulay bo'lganligi sabab uchuvchi bombani Nagasakiga tashlashga qaror qiladi. Yaponiyalik injyener Tsutomu Yamaguti esa ikki marta atom bombasi portlashini boshdan kechirgan insondir. Gap shundaki 1945 yilning 6 avgustida Yamaguti Xirosimada bo'lgan va bomba portlashidan so'ng erta tongda o'zining ona shahri Nagasakiga qochib boradi. Yetib borishi bilan ikkinchi bomba portlaydi. Yamaguti 2010 yilga qadar tirik qolgan va ikki atom urushini boshdan kechirgan oxirgi inson sifatida tarixga muhrlangan.



4) G'alabaga bag'ishlab 1945 yilda o'tkazilgan paradda Yo'lbars nomli it askarlar tomonidan shinelda ko'tarilgan holda olib o'tilgan. Yo'lbars urush davomida 7468 mina va 150 ta snaryadni zararsizlantirib, minglab askarlarni muqarrar o'limdan saqlab qoladi. Urush tugashiga sanoqli kunlar qolganda Yo'lbars og'ir yaralanadi va yurolmay qoladi. Shunda shaxsan Stalinning o'zi shineline yechib beradi va itni ko'tarib paraddan o'tishga buyruq beradi.

5) Ikkinchi jahon urushida nafaqat bronepoyezdlar, balki bronedrezin — relsda harakatlanuvchi tanksifat o'qotar qurollardan ham foydalanilgan.

6) Urush paytida Germaniyaga qarshi ittifoqchilar yirik kemalar yasash uchun metall tanqisligiga duch kelishadi. Shunda muzdan kemalar yasash g'oyasi paydo bo'ladi va kulgili tuyulmasin bu g'oya har jihatdan qo'llab-

quvvatlanadi. Hatto bitta kema yasaladi ham. Ammo keyinchalik bu loyihaning ish bermasligi anglab yetildi.

7) Frantsuz xonandasi Edit Piaf urush yillarida Germaniya hududidagi harbiy asirlar lagerlarida konsertlar bergan va asirlar bilan suratga tushgan. Keyin bu suratlardan asirlarning suratini qirqib olib, soxta hujjatlar orqali asirdagi fransuzlarga qochishda yordam bergan.



8) 1944 yilda yapon armiyasi kichik leytenanti Onoda Xiroga Filippindagi Lubang orolida partizanlar otryadini boshqarish va yashirinish buyuriladi. Barcha askarlar nobud bo'lganidan so'ng ham Onoda Xiro changalzorlarda yashirilib, hech qanday dushman bo'lmada, hududni tark etishga buyruq bo'lmagani uchun 1974 yilga qadar partizanlik harakatini davom ettirgan. Keyinchalik mahalliy odamlar bu orolga kelib, partizanga duch kelganlarida Onoda urush allaqachon tugaganiga ishonmay qurolni topshirishdan bosh tortadi bevosita komandirining buyrug'i bo'lmaguncha qarshilik ko'rsatishini bildiradi. Bir amallab keksa komandirni topib kelishadi va u karnay orqali changalzorga qarab bir necha kun davomida qarshilikni to'xtatishni buyurib turadi. Shundan keyingina keksayib qolgan askar qurolni topshiradi va vataniga qaytadi. Undan "O'tgan umringiz behuda ketganiga achinmaysizmi?", deb so'raganlarida, "Achinmayman! Chunki men vatanim ravnaqi yo'lida xizmat qildim va buyruqni oxiriga qadar bajardim. Qaytganimda men taraqqiy etgan Yaponiyani ko'rdim va bunda o'zimning ham hissam bor, deb hisoblayman. Chunki har kim o'z ishini sidqidildan bajarishi kerak", deya javob bergan.

*Abror Zohidov*

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:**

[https://uz.wikipedia.org/wiki/Ikkinchi\\_jahon\\_urushi#:~:text=Ikkinchi%20jahon%20urus%20hi%20\(g%20%80%99alaba%20kuni%20sifatida%20nishonlash](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ikkinchi_jahon_urushi#:~:text=Ikkinchi%20jahon%20urus%20hi%20(g%20%80%99alaba%20kuni%20sifatida%20nishonlash)

O'zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida. [Albom]: kitob albom / nashr uchun mas'ul X.Sultonov.Tuzuvchilar S.Saidolimov, K.Sadullayev, N.Bobojonov.-Toshkent "O'zbekiston" nashryoti.-2023.-296 b.